



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHENEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науаи және XXI ғасыр”


10-ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navo'i and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Qozog'iston Respublikasi Jumabek
Tashenev nomli universitet**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi
materiallari**

2025-yil 6-fevral

Toshkent – Chimkent – 2025

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50')

A 51

Mas'ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Kanat BAYBOLOV,

Jumabek Axmetuli Tashenev nomli universitet rektori,
texnika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Parida Bayneeva (Qozog'iston), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Yashar Qosim (Ozarbayjon), Islam Jemeney (Qozog'iston), Farhod Rahimiy (Eron), Sholpan Arzimbetova (Qozog'iston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Janna Botabaeva (Qozog'iston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Shahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Ilyos Ismoilov (O'zbekiston), Azizullah Aral (Afg'oniston), Orzigul Hamroyeva (O'zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi 10-uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

**Әлішер Науаи атындағы Ташкент
мемлекеттік өзбек тілі мен әдебиеті университеті**

**Қазақстан Республикасы Жұмабек
Тәшенев атындағы университет**

«ӘЛІШЕР НАУАИ ЖӘНЕ XXI ҒАСЫР»

**тақырыбындағы 10-халықаралық
конференция материалдары**

2025 жыл 6 ақпан

Ташкент – Шымкент – 2025

3- Bazı şiirlerde bazen Avni bazen de Fani divanında diğerinde bulunmayan beyitlerin olması, noksanlı divandan(ister avni ister fani) daha mükemmel nüshaların da mevcut olabileceğini düşündürür bilir.

4- bu konu Nevâi'yi tesiri altına alan kimselerin sayısının artması bakımından ve dahi türkçe'nin batı-doğu ilişkileri bakımından son derece önemlidir.

5- Fani divanını bir kere daha Nevai'nin tercüme sanatındaki yeri açısından incelenmek gerekir.

Kaynaklar:

Elyazmlar:

1. **Divan.** Fani. 3850. İstanbul Nuruosmaniye Koleksiyonu.
2. **Divan.** Fani. 469. İstanbul Lala İsmail Koleksiyonu.
3. **Divan.** Fani. 117. İstanbul Galata Mevlevihanesi Koleksiyonu.
4. **Divan.** Fani. 632. İstanbul Hekimoğlu Koleksiyonu.
5. **Divan.** Fani. 1156. Kütahya Tavşanlı Zeytinoğlu Koleksiyonu.
6. **Divan.** Fani. Turco 285. Paris Milli Kütüphanesi.(Metinde P2 Olarak Geçmiştir)
7. **Divan.** Fani. Turco1345. Paris Milli Kütüphanesi.
8. **Divan.** Fani. Or 11249. British Museum.
9. **Divan.** Fani. 1035. Tahran Meclis-İ Şura-İ İslami Kütüphanesi.
10. **Divan.** Fani. 2866. Tahran Üniversitesi Merkezi Kütüphanesi.
11. **Divan.** İkinci Sultan Mehmed(Avni). 305. İstanbul Millet Kütüphanesi Ali Emiri Koleksiyonu Manzum Eserler.
12. **Hamsetü'l-Mutahayerin.** Nevai. 308. Paris Milli Kütüphanesi.
13. **Muhakemetü'l-Lugateyn.** Nevai. 308. Paris Milli Kütüphanesi.

Yayımlanmış:

14. **Baburname.** Zaireddin Muhammed. Hazırlayan: Reşit Rahmeti Arat. Ankara: Kültür Bakanlığı Yayınları, 2000.
15. **Külliyat-ı Nevai.** (tıpkı basım). Hazırlayan: Günay Kut. İstanbul: Türkiye Yazma Eserler Kurumu Başkanlığı. 2020.
16. **Osmanlı Arşiv Vesikaları.** Hazırlayan: Recep Karacakaya Ve İsmail Yücedağ. İstanbul: İdeal Kültür Yayıncılık. 2019.

اميرکبير نظام الدين امير عليشير نوایی رزمی، غلامرضا. تبریز: تجدد، 1402. **17.**

*

PO'LATJON QAYYUMIY TAZKIRALARIDA ALISHER NAVOIY FAOLIYATINING YORITILISHI

Ahmadaliyev Lochinbek Muhammadyusuf o'g'li,

University of Business and Science Til va adabiyot ta'limi kafedrası, PhD

nihcol95@gmail.com

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/LQQV3139

Annotatsiya: "O'zbek adabiyoti namuna daftari" hamda "Tazkirai Qayyumiy" asarlari Po'latjon Qayyumiyning uzoq yillik ilmiy izlanishlari natijasi bo'lib, Qo'qon xonligi tarixi va Qo'qon adabiy muhiti haqida qimmatli manbalardan biridir. Shu bilan birga, ushbu tazkiralarda o'zbek mumtoz adabiyotining deyarli barcha davrlari hamda ularda faoliyat yuritgan professional va havaskor shoirlar to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Tazkiralarda alohida hurmat bilan tilga olingan shoirlardan biri, shubhasiz, Alisher Navoiydir. Maqolada tazkiranavisning Alisher Navoiy hayoti va ijodiga munosabati tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: antologiya, tazkira, devon, manba, onomastika, etnografiya, tarix, adabiyot, oʻlkashunoslik.

COVERAGE OF ALISHER NAVAII'S ACTIVITIES IN THE REVIEWS OF POLATJAN TAYUMI

Abstract. *This article examines the "Sample Notebook of Uzbek Literature" and "Tazkira-i Kayyumi," which represent the culmination of Polatjon Kayyumi's long-term scientific research. These works are invaluable sources for understanding the history of the Kokand Khanate and the literary environment of Kokand. Additionally, they provide comprehensive insights into nearly all periods of Uzbek classical literature, including both professional and amateur poets active during those times. Alisher Navoi, as a central figure, is accorded special respect in the Tazkira. The article further analyzes the portrayal of Navoi's life and work within the context of the Tazkira and explores the tazkiranavis' perspectives on his literary contributions.*

Keywords: *anthology, tazkira, devon, source, onomastics, ethnography, history, literature, local lore.*

Poʻlatjon domulla Qayyumiy 1885-yilda Xoʻqandi latifning Xoʻjand dahasiga qarashli Haydarbek II mahallasi (hozirgi 1-Sharq koʻchasi)da dunyoga kelgan. Tazkiranavis, matnshunos, maʼrifatpar va pedagog Poʻlatjon domullo Qayyumiy (1885-1964) adabiyot sohasida rivojida bir qancha muhim ishlarni amalga oshirgan. Chunonchi, "Uch ogʻa-ini botirlar" ertagining yozib olinishi va eʼlon qilinishi, Rahmatullohqori Vozehning "Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-asʻhob", Afzal Pirmastiyning "Tazkirai Afzaliy", Sadriddin Ayniyning "Namunai adabiyoti tojik" tazkiralarning tarjima qilinishi, Maxmurning 69ta sheʼridan iborat noyob qoʻlyozma devonining topilishi (1950), Furqat qoʻlyozma devonining tuzilishi (1959) bevosita olim nomi bilan bogʻliq. Bundan tashqari, adabiyotshunos tazkiranavis sifatida turkiy (oʻzbek) shoirlari hayoti va ijodi bilan bogʻliq maʼlumotlarni jamlash natijasida "Oʻzbek adabiyoti namuna daftari", "Tazkirai Qayyumiy", "Xoʻqand tarixi va uning adabiyoti", "Tazkiratu-sh-shuaro" kabi tazkiralarni yozdi.

Poʻlatjon domla matnshunos va adabiy manbashunos sifatida ham salmoqli ishlarni amalga oshirgan. Chunonchi, "Oʻzbek adabiyoti namuna daftari" olimning mana shu sohadagi ilk qadamlaridan biri edi.

Tazkira Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan oʻqituvchi, Poʻlatjon domullo Qayyumiy (1885-1964) tomonidan tuzilgan ilk tazkira boʻlib, Sadriddin Ayniyning "Namunai adabiyoti tojik" taʼsirida bitilgan. Poʻlatjon Qayyumiy butun umrlik ilmiy faoliyati davomida turkiy (oʻzbek) mumtoz shoirlari haqida faktlarni yigʻib borgan. Biroq sovet mafkurasi taʼsiri ostida ularni qay tarzda keng ilmiy jamoatchilikka taqdim etishga qiynalgan. Chunki u yigʻgan shoirlarning juda katta qismi "feodal klerikal saroy adabiyoti" vakillari edi. Shunday paytda 1926-yilda Sadriddin Ayniy yuqoridagi asarini eʼlon qilgan. Bu jarayon Poʻlatjon Qayyumiyga oʻz maqsadini ochishga yoʻl ochgan. Sadriddin Ayniy mafkura yalovbardori boʻlganligi sababli Poʻlatjon Qayyumiy uning asari soyasi ostida xuddi u kabi oʻzbek shoirlari sheʼrlarini eʼlon qilish, Ayniyga ergashish orqali oʻzi va asarini tanqiddan omon saqlashi mumkin edi. Shundan soʻng olim oʻzidagi tarqoq materiallarni tartiblashga kirishadi.

Ushbu tazkira turkiy (oʻzbek) mumtoz adabiyoti vakillari toʻgʻrisida unikal maʼlumotlarni taqdim eta olishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Tazkirada keltirilgan turkiy (o'zbek) mumtoz shoirlari orasida alohida hurmat-e'tibor bilan tilga olingani, shubhasiz, Hazrat Nizomiddin Mir Alisher Navoiydir. Tazkiranavis o'z asarining 89-93-sahifalarini ulug' shoir ijodiga bag'ishlagan bo'lib, 89-sahifa shoirning tarjimai holi va unga tazkira muallifining adabiy munosabatini o'z ichiga olgan hamda uni: "Mavlono Alisher Navoiy to'g'risida", deb nomlagan. 90-93-sahifalarda esa shoir she'rlaridan namunalar taqdim etilgan.

Ulug' o'zbek shoiri Navoiy milodiy ila 1441-yilda 9-fevralda Hirot shahrida tug'uldi. Uning oilasi hukumat idorasida xizmat etuvchi a'yonlardan edi. Otasi Xurosonning Sabzavor nomli shahrining hokimi edi. Alisher temuriylardan Husayn Boyqaro bilan boshlang'ich maktabda birga o'qudi. 1449-yilda Xurosonning shohi Shohrux Mirzo o'lganidan keyin shahzodalar orasida taxt talashish boshlanib ketgach, Alisherning oilasi bu ichki, o'zaro bo'lmish kurashlardan qochib Iroqqa ketdi. Unda turib 1452-yilda Alisher Hirotga qaytib keldi va o'qushini davom etdirdi. So'ngra xattotlik va rassomlik, musiqa, ilmi aruz kabi fanlarni ham o'rgandi. Navoiy she'r yozishga juda ertaroq kirishib edi. Ul 15 yoshida shoir bo'lub xalqqa tanilgan edi. Navoiyga turkiy tilda yozganda "Navoiy", forsiy tilda "Foniy" taxallus etmishdur. Shuning uchun ikki til egasi deb ataldi. 1456nchi yilda Xuroson shohi bo'lmish Abulqosim Boburning xizmatiga kirishdi. Bu kishi ham shoir edi. Yosh Alisherning talantiga yaxshi baho berar edi. Abulqosim vafot etsa ham, Navoiy Mashhadda qoldi. 1464-yilda o'z shahri Hirotga qaytib keldi. Bu yerda ul badaxshonlilar bilan do'stlashib edi. Biroq badaxshonlilar Abu Said Mirzoga qarshi isyon chiqardilar. Abu Said Mirzo esa buni Alisherdan gumon etib, 1466-yilda Alisherni Samarqand shahriga surgun qildi. Alisher bunda Ulug'bek madrasasida turib, o'shal zamonning mashhur olimi, mudarris mavlono Abullays Samarqandiydan ilm ola boshladi. Bunda shoirlar, cholg'uvchilar, olimlar bilan tanishdi va do'stlashdi. 1468-yilda Husayn Boyqaro Xuroson shohi bo'lub, Hirotga Alisherni chaqirdi. 1469-yil Sulton Husayn muhrdorlik mansabini berdi. Saroy kishilari bilan kelisha olmay, vazifasidan iste'fo berib, II yil kitoblar tasnif etish bilan shug'ullandi. O'z devonining tartibga soldi. Buyuk kitobi "Xamsa"ni yozib tamom etdi. Ig'vogarlarni tuhmati ila Astrobodga surgun qilindi. 1489-yilda Hirotga qaytib keldi. 1501-yilda 3-yanvarda vafot etdi. Asarlari bizga qoldi" [Qayyumiy, 1957: 89].

Ushbu fiqradan ma'lum bo'ladiki, tazkiranavis shoir ijodiga xolislik bilan yondashgan. Ayni paytda, ayrim munozarali o'rinlar ham mavjud. Uning bolalik chog'lari, oilasi, boshlang'ich ta'limi kabi masalalardan so'z boshlagan muallif temuriyzoda hukmdor Shohrux Mirzoning vafotini "1449-yil" deb beradi. Ushbu ma'lumot "Tazkirai Qayyumiy"da ham aynan shunday keltirilgan [Qayyumiy, 1960: 2]. Aslida Shohrux Mirzo 1447-yil 12-martda nevarasi Sulton Muhammad Mirzo isyonini bostirish vaqtida Ray shahrida 70 yoshida vafot etadi [Shamsutdinov, Karimov, 2010: 399]. Mana shu kabi holatni Husayn Boyqaroning taxtga chiqish sanasida ham ko'rish mumkin. Po'latjon Qayyumiy uni 1468-yilda taxtga chiqqanligini aytadi. Aslida esa mazkur temuriyzoda taxtga chiqqan vaqti milodiy muqobili hisoblab chiqilganda 1469-yilning 24-mart sanasiga to'g'ri kelishi aniqlangan [Shamsutdinov, Karimov, 2010: 411]. Shu bilan birga, Alisher Navoiyning Iroqdan Hirotga qaytishi, Abulqosim Bobur xizmatiga kirishi, Mashhaddan Hirotga qaytgani, Samarqandga ketishi, muhrdorlik lavozimiga tayinlanganligi, Astroboddan Hirotga qaytishi, shuningdek, tavallud va vafot sanalari tarixchilar tomonidan berilgan ma'lumotlar bilan to'laqonli mos keladi. Umuman olganda, tazkira yozilayotgan paytda Shohrux Mirzo va Sulton

Husayn Boyqarolar faoliyati monografik tadqiq etilmaganligi, ularning faoliyati bilan bog'liq joriy yozuvdagi asarlar nashri amalga oshirilmaganligi sababli tazkiranavis qo'lyozmalarga murojaat etgan hamda ularda berilgan hijriy vaqtning milodiy muqobilini hisoblab chiqqan. Mazkur tafovutlar mana shu sabablar yuzasidan kelib chiqqan.

Bundan tashqari, ushbu ma'lumotlarda yana bir e'tibor qaratish lozim bo'lgan o'rin mavjudki, bu Alisher Navoiyning Abu Said Mirzo tomonidan Samarqandga surgun qilinishidir. Shoirning temuriyzoda hukmdor tomonidan surgun qilinganligi haqidagi ilk ma'lumotlar adabiyotshunoslikda V.Bartold tomonidan ilgari surilgan. V.Bartoldning fikrlari Y.Bertels tomonidan ham qabul qilingan. Shu tariqa ushbu qarash adabiyotshunoslikda keng yoyila boshlangan. Biroq ayrim adabiyotshunoslar mazkur fikrga qo'shilmaydi. Masalan, Sh.Sirojiddinov Alisher Navoiyning Samarqandga ketishini quyidagicha izohlaydi: "Bu davrda Samarqand obod diyor bo'lib, Mirzo Ulug'bek tomonidan asos solingan jahoniy ilm-fan markazi an'analari hali so'nmagan, islomiy ilmlarning allomalari hanuz hanafiylik ta'limotini mukammal o'qitish bilan band edi" [Сирождинов, 2023: 41]. Adabiyotshunos olim bu o'rinda Alisher Navoiyning Samarqand borishini surgun bilan bog'liq emas, balki tahsil maqsadida borganligini aytmoqda.

Po'latjon Qayyumiy fikrlarida ham shoirning Samarqandga borishiga surgun sabab qilib ko'rsatilgan. Ayni paytda, ushbu surgunga adabiyotshunoslar va tarixchilar tomonidan turlicha sabablar keltirilganligi holida tazkiranavis bu masalaga Abu Said Mirzo va Husayn Boyqaro bilan bog'liq bo'lgan nizolarni keltirmagan holida boshqa unikal sababni vosita qiladi. Po'latjon Qayyumiyning fikrlariga ko'ra Alisher Navoiy badaxshonliklar bilan do'stlashib yurgan vaqtida ular tomonidan hukmdorga qarshi isyon tashkil etilgan. Mana shu sabab shoirning Samarqandga surgun qilinishiga sabab bo'lgan.

Shoir ijodiga chuqur hurmat bilan yondashgan olim o'z tazkirasida eng katta o'rinlardan birini aynan uning she'rlariga bag'ishlagan. Chunonchi, Alisher Navoiy hayoti to'g'risidagi ma'lumotlardan so'ng shoirning "Azal naqqoshi tarh aylarda gul bargi namudorin..." misrasi bilan boshlanuvchi 9 baytli g'azali, "Ey sabo, holim borib sarvi xiromonimga ayt..." misrasi bilan boshlanuvchi 8 baytli g'azali, "Ne bo'ldi dardima, ey bevafo, davo qilsang?..." misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g'azali, "Qon yutub umri jahon ahlida bir yor istadim..." misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g'azali, "Ul pari ko'yida men devonani band aylangiz..." misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g'azali, "O'rtanur el furqatingdin navha bunyod aylasam..." misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g'azali, "Qaro ko'zum kel-u mardumlig' emdi fan qilg'il..." misrasi bilan boshlanuvchi 8 baytli g'azali keltirilgan.

Po'latjon Qayyumiy ushbu tazkirasidagi ma'lumotlarni qisman tahrirlagani holida "Tazkirai Qayyumiy"da qayta taqdim etgan. O'zining ushbu asarini turkiy (o'zbek) adabiyotining eng yetuk vakillari bilan boshlashni ixtiyor etgan muallif shoirlar avvaliga, birinchi bo'lib Alisher Navoiy haqidagi fiqrani joylashtirgan:

1. Navoiy – ulug' shoir Alisher milodiy 1441-yilda 9-fevralda Hirot shahrida xizmatchi amir oilasida dunyoga keldi. Otasi hukumat idorasinda xizmat etar edi. Bu vaqtda Sabzavor nomli shaharning amiri edi. Alisher temuriylar sulolasiga yaqin turar edi. Temuriylardan Husayn Boyqaro bilan boshlang'ich maktabda birga o'qumishdur. Xurosonning podshosi Shohrux Mirzo 1449-yilda vafot etkandan so'ngra shahzodalar orasinda taxtga vorislik talashish boshlanib ketib, mamlakatda notinchlik zuhur etdi.

Alisherning otasi butun oilasini olib Iroq tomonga safar etdi. 1452-yilda Alisher Hirotga qaytib keldi. Tahsilda davom etdi. Xattotliq ila rassomliq ham ilmi aruz o'rgandi. Musiqaning ham o'rgandi. She'r yozishga juda ertaroq kirishdi. Ul 15 yoshida shoir bo'lib tanildi. Turkiy tilda taxallus etib "Navoiy" va tojik tili(da) "Foniy"ning ixtiyor etdi. Shuning uchun "ikki til egasi" (zullisonayn) deb shuhrati chiqdi. 1456nchi yilda Xurosonning shohi bo'lmish Abulqosim Bobur o'z saroyiga xizmatiga kirdi. Bu shoh ham shoir edi. Yosh Alisherning talantiga yaxshi baho berur edi. Abulqosim Bobur vafot etdi. Alisher Mashhad shaharida turdi. Bundan Hirotga 1464-yilda qaytib keldi. Bunda turganda, "badaxshon"lilar bilan do'stlashib yurar edi. So'ngra badaxshonlilar Abu Said Mirzoga qarshi isyon chiqazdilar. Gumon bilan buni Alisherdan ko'rdilar. 1466-yilda Alisherni Samarqand shahariga surgun qilindi. Alisher madrasai Ulug'bekda turib, o'shal zamonning mashhur olimi, mashhur mudarrisi, mavlono Abu-l-Lays Samarqandiydan fan o'rgana boshladi. Bunda mashhur olimlar va cholg'uchilar va boshqa fan arboblari bilan tanishdi. 1469-yilda Hirotga o'zgarish, 1469-yilda Husayn Boyqoro Xuroson shohi bo'lub, Hirot taxtiga o'lturdi. Alisher Navoiyning o'z yoniga chaqirdi. Alisher Hirotga borgach, 1469-yilda muhrdorlik mansabi berildi. Bu olimni vijdoni hukmdorlarni axloqi bilan kelisha olmadi. Saroy arboblarning xalq ommasiga qilgan jabr-zulmlariga norizoliq ko'rsata boshlagach, zolimlar to'pi Alisherning yoqtirmadilar. Surgunda bo'ldi. Yana Hirotga qaytdi. Keyin hamma vazifalardan iste'fo berib chiqib, o'n bir yilcha miqdor vaqt ilmiy, adabiy, tahrir ishlar bilan mashg'ul bo'ldi. Buyuk asarlarini yaratdi. "Xamsa"sini yozib tamom etdi. Astrobodga borib turdi. 1488-yilda Hirotga kelib turdi. Nihoyat, 1501-yilda 3-yanvarda vafot etdi. O'zbek mutafakkiri, shoiri bizga buyuk, qiymatli asarlarining qoldirdi [Qayyumiy, 1960: 2-3].

Shoir haqidagi ma'lumotlardan so'ng ushbu tazkirasiga olim "O'zbek adabiyoti namuna daftari"dan "ayt", "aylasam", "istadim" radifli g'azallarini ko'chirib o'tkazgani holida "qilsang?", "aylangiz", "qilg'il" radifli g'azallari hamda "Azal naqqoshi tarh aylarda gul bargi namudorin..." misrasi bilan boshlanuvchi g'azallarini olib o'tmagan. Ularning o'rniga ushbu tazkirada "Tushimda oldi hushimni karashma birla birov..." misrasi bilan boshlanuvchi 6 baytli g'azali hamda shoirning "Farhod va Shirin" dostonidan olingan mashhur "Odamiy ersang..." bayti berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Po'latjon domulla Qayyumiy. O'zbek adabiyoti namuna daftari (qo'lyozma). – Qo'qon: Hamza Hakimzoda Niyoziy nomidagi Buyuk allomalar muzeyi, 1957. № 953. – 594 s.
2. Po'latjon domulla Qayyumiy. Tazkirayi Qayyumiy (qo'lyozma). –Toshkent: O'z R FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi, 1960. № 734. – 651 s.
3. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. I kitob. – Toshkent: Sharq, 2010. –512 b.
4. Сирожиддинов Ш. Амир Алишер. Хаёти ва фаоляти. –Тошкент: Адабиёт, 2023. – Б. 41.

NAVOIY G'AZALLARIGA SA'DIY TAXMISLARI

Sattorova Dilnavoz Odiljon qizi

*TDO'TAU tayanch doktoranti,
dilnavozsattorova328@gmail.com*

Annotatsiya. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Xiva adabiy muhiti vakillari mumtoz adabiyotimiz an'alarini munosib davom ettirishgan. Alisher Navoiy ijodiy merosi bu davrdagi shoirarga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Navoiy an'alarini davom ettirib, ko'plab lirik asarlar ijod etgan zullisonayn shoirlardan biri Sa'dulla To'ra Sa'diydir.

Ushbu maqolada Sa'diyning Alisher Navoiy g'azallariga bog'lagan ayrim taxmislari yuzasidan mulohazalar bayon etilgan. Navoiy g'azallari va Sa'diy muxammaslari matni orasidagi ayrim o'zgarishlar ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Navoiy, Sa'diy, g'azal, taxmis, qo'lyozma, devon, bayt.

SA'DI'S APPRECIATIONS ON NAVAI'S GHAZALS

Abstract. This article explores the continuation of classical literary traditions by representatives of Khiva's literary community at the turn of the 19th and 20th centuries. Alisher Navoi's literary legacy had a profound influence on the poets of this period. Sa'dulla Tora Sa'di, a notable poet, embraced and carried forward Navoi's traditions, creating numerous lyrical works. The article presents an analysis of some of Sa'di's takhmises inspired by Alisher Navoi's ghazals, highlighting the textual variations between Navoi's original ghazals and Sa'di's muhammases. The study also examines the extent of these changes and their significance in maintaining the literary traditions of the time.

Keywords: Sa'di, Navoi, mukhammas, ghazal, manuscript, divan, verse.

Adabiyotimiz tarixida ko'plab adiblar o'zidan oldingi salaflarining ijod namunalaridan ta'sirlanib, o'zlarining lirik asarlarini bitishgan. Bu borada, ayniqsa, ulug' mutafakkir Alisher Navoiy ijodidan ta'sirlanish kuchli bo'lgan.

Sa'dulla to'ra Sa'diy ham o'zining ko'plab lirik asarlarini Navoiy g'azallariga o'xshatma va taxmislar tarzida bitgan. O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutidagi 909/2, 7092, 8725 raqamli manbalarda Sa'diy lirik asarlari jamlangan. Shoir ijodida Alisher Navoiy g'azallariga ta'sirida yozilgan "Ey sumanbar oy yuzingga jism ila jonim fido", "Zihi soneyiki sun'ig'a oning yo'qdur adad paydo", "Bazmimg'a bu tun lutf etib sho'x parizodim kelur", "Topgil farah, ey zor ko'nglum, bu kecha yoring kelur", "Ey falak, jurmim nedurkim g'amg'a duchor aylading", "Rahm etib faryodima, keldi parizodim mening", "Holima lutf aylagan ul chashmi fattonim mening" misralari bilan boshlanuvchi g'azallari ko'chirilgan. Bundan tashqari Sa'diy Navoiyning yuksak badiiyat namunasi hisoblangan g'azallariga bir qancha taxmislar bitgan.

Sa'diyning 909/2 raqamli devonida keltirilgan "Forig' o'lmadi dahrning olom asqomi bila" deb boshlanuvchi birinchi muxammasi "Navodiru-sh-shabob"da keltirilgan "Vahki, umrum barcha zoyi' bo'ldi el komi bila" deb boshlanuvchi 548- g'azaliga taxmis sifatida yozilgan. Ushbu muxammas 909/2 raqamli devonning 113^b-114^b, 7092-raqamli devonning 37^{a-b} sahifalari orasida hamda 8725 raqami ostida saqlanayotgan manbada ham mavjud. Navoiy g'azali to'qqiz bayt bo'lib, Sa'diy uning yetti baytiga taxmis bog'lagan. Ya'ni Sa'diy Navoiy g'azalining birinchi, ikkinchi, uchinchi, beshinchi, oltinchi, yettinchi va to'qqizinchi baytlariga taxmis bog'lagan. Sa'diy, negadir, Navoiy

MUNDARIJA CONTENTS	
Shuhrat SIROJIDDINOV. Turkiy dunyo hamkorligining mustahkam asosi Туркі әлем ынтымақтастығының мықты негізі	7
Қанат БАЙБОЛОВ. Екі халық арасындағы бауырлық пен достық рәмізі Ikki xalq qardoshligi va do'stligi simvoli	11
I SHO'BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O'RN SECTION I. THE PLACE OF ALISHER NAVAII'S LITERARY HERITAGE IN WORLD CIVILIZATION	
Boqijon TO'XLIYEV. Nasimiy va Navoiy nazmi – badiiy tafakkurning yangi bazmi	15
Islam JEMENEY. Әлішер Навои	23
Yashar QOSIM. Dohiy Alisher Navoiyning ulug' izdoshi (Muhammad Fuzuliy sheiriyatida poetik in'ikos tarzining o'ziga xosligi)	35
Qodirjon ERGASHEV. Renessans adabiyotida etologik janr taraqqiyoti	42
Əlimuxtar MUXTAROV. Nizami Gencevi ve Alişir Navai'nin tür ruhu eserlerinin ve araştırmacılarının gözü ile	47
Roviyajon ABDULLAYEVA. Alisher Navoiy fenomeni yoxud Navoiy ijodining olamshumul ahamiyati	52
Насриддин НАЗАРОВ. Гуманизм и креативность в творчестве Наваи как фактор обеспечения связей между народами Евразии	60
Burobiya RAJABOVA. O'zbek navoiyshunoslari Jomiy haqida	67
Karomat MULLAXO'JAYEVA. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy g'azallarida Yusuf (a. s.) siymosining badiiy talqinlari	77
Tozagul MATYOQUBOVA. Sharq adabiyotining yetuk tadqiqotchisi	82
Nosir JO'RABOYEV. Ikki turkman hukmdori ijodi va Alisher Navoiy	87
Молдасанов Е.М., АБДУВАЛИТОВ Н.Б. Әлем әдебиетінің асқар шыңы (Әлішер Науаидың 584 жылдығына орай)	95
Hulkar HAMROYEVA. Alisher Navoiy ijodida san'at talqini	99
Злиха ЖАНТАСОВА. Шығыс әдебиетінің қазақ фольклорындағы көрінісі	103
Sherxon QORAYEV. Alisher Navoiy Badaxshon shohi va shoir Sulton Muhammad La'liy ijodi tadqiqotchisi (Navoiy va uning zamondoshlari tazkiralari ma'lumotlari asosida)	109
Ahmad AKHLAQUE, Asror Allayarov. Alisher Navoi's creative works: a scientific exploration	115

Fayzulla ISKANDAROV, Dostonjon Tojiev. “Alisher Navoi international award”: establishment and historical significance for the turkic world	118
Diyora ABDUJALILOVA. Alisher Navoiy va Yahyobey Toshlijali dostonlarida shayx va avliyolar timsoli	124
Orifjon OLIMJANOV. Alisher Navoiy va Lorendeli Hamdiy “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasiga doir	131
II SHO‘BA. NAVOIY NAZMIY, NASRIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI SECTION II. ISSUES OF STUDYING NAVAIY'S POETRY, PROSE AND SCIENTIFIC HERITAGE	
Nurboy JABBOROV. Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining siyarnoma turkumida tutgan o‘rni	136
Nusratullo JUMAXO‘JA. Navoiyning yigitlik lirikasiga mansub mustazodi	149
Maqsud ASADOV. Alisher Navoiy “Tanbeh”larining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari (“Mahbub ul-qulub” asari misolida)	155
Dr. Kemal Yavuz ATAMAN. Ali Şir Nevaî beyitlerinde kulluk şuuru	160
Zuhridin ISOMIDDINOV. Navoiyning “qaychi” g‘azali	165
Baxtiyor FAYZULLOYEV. Qo‘qon adabiy muhitida Navoiyga izdoshlik	170
Iqboloy ADIZOVA. Adabiy ta’sir va poetik tafakkurning yangilanishi	177
Nafas SHODMONOV, G‘iyosiddin SHODMONOV. Olti dostonida Odam Ato timsoli talqini	185
Faridaxon KARIMOVA. Xorazm adabiy muhitida debochanavislik an’analari	193
Islomjon YAQUBOV. O‘zaro ta’sir, ijodiy mushtaraklik va o‘ziga xoslik	200
Shavkat HAYITOV, Gulshod SHOYIMOVA. Alisher Navoiyning nabotot va hayvonot olamiga munosabati	205
Obidjon KARIMOV. Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini	212
Gulbahor ASHUROVA. O‘zbek ayol shoiralari ijodida Alisher Navoiy obrazi tasvirlari	216
Qo‘ldosh PARDAYEV. Navoiy g‘azallariga Muqimiyning nazira va taxmislari	221
Ilyos ISMOILOV. Abror hayrati	226
Shermuhammad AMONOV, Abdulhaq RAHIMI. Alisher Navoiy mustazodiga bog‘langan muxammas haqida	229
Zilola AMONOVA, Shahlola SAFAROVA. “Farhod va Shirin” dostonidagi na’t boblarning manbalari va badiiyati	235
Abdulhamid QURBONOV. Badiiy matn va tasviriy vositalar mutanosibligi	242
Muqaddas TOJIBOYEVA. Abdulla Qodiriy romanlarida Alisher Navoiyga izdoshlik masalalari xususida	248
Orzigul HAMROYEVA. Radifning bayt kompozitsiyasidagi o‘rni	252

Ma'rifat RAJABOVA. Xalq maydon kulgi san'ati belgilarining Navoiy ijodidagi ko'rinishlari	256
Nodira SOATOVA. "Farhod va Shirin" dostoni – an'ana takomili, taraqqiysi hamda sintezi sifatida	260
Umida RASULOVA. "Alisher Navoiy" romanida obraz poetikasi	266
Marg'uba ABDULLAYEVA. Yetti sayyora: badiiy talqin va ilmiy dunyoqarash	269
Sohiba UMAROVA. Suyuma G'aniyeva – navoiyshunos	273
Zuhra MAMADALIYEVA. Alisher Navoiy "Xamsa"sida mirrix obrazining majoziylik xususiyatlari	277
Aziz RAJABIY. Alisher Navoiy g'azallarining ohang jilolari (Yunus Rajabiy musiqiy merosi misolida)	282
Zarif QUVONOV. "Hayrat ul-abror"ning yangi tadqiqatlari xususida	286
Farruxbek ABDALIYEV, Gulnoza OSMANOVA. "Xamsa"da "kampir" obrazi talqini	290
Nafisa RAXMANOVA. Ramziy-majoziy obrazlar ta'vili haqida mulohazalar	293
Kamola ULUG'MURODOVA. Navoiy nazmida Layli obrazining badiiy talqini	299
Mavluda ORTIQOVA. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida valiylarga xos sifatlar talqini	303
Jamila EISAR. Alisher Navoiyning she'riyatida oyina timsolining talqini ("G'aroyib us-sig'ar misolida")	308
Azizbek TOSHPO'LATOV. Alisher Navoiyga izdoshlik: Ahmad Tabibiy taxmislari	313
Sevara PARMONOVA. Tasavvufiy tazkiralari va Alisher Navoiy asarlarida Ibrohim Adham nomining zikr etilishi	318
III SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI SECTION III. SOURCES AND TEXTUAL RESEARCH OF ALISHER NAVAI'S WORKS	
Dilnavoz YUSUPOVA, Umedullo MAHMUDOV. Alisher Navoiyning "Munshaoti Abdulloh Marvorid"dan o'rin olgan forsiy maktublari xususida	323
Manzar ABDULXAYROV. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tabdillari tahlili	330
Dr. Farhad RAHIMI. Senglah Sözlüğünün Feraği Düzeltmeleri ve Feraği'den Yanlış ktarmaları Üzerine	335
Gholamreza RAZMI. Özbekistan'da yayimlanmış iki Hayretü'l-ebrar'in tashih edilmiş metnindeki hatalarin sebeplerine bir bakiş	352
Altay NOORULLAH. Navoiy asarlarida tinish belgilarining yanglish ishlatilishi	365

Sevda BEHESHTI. Navai's Poetry as Reflected in Miniature Paintings (A study of Illustrated manuscripts preserved in Iranian collections)	376
Oysara MADALIYEVA. Alisher Navoiyning dastlabki ikki devoni Hamid Sulaymon nigohida	384
Dr. Siyamek HÜSSEYINALIZADE (Ergin Avşar). Amîr Alî Şîr Nevaî'nin şiirlerinde Şamanlığa aid Terimler ve ritüeller	395
Ozoda TOJIBOYEVA. Parij kulliyotidagi "Favoyid ul-kibar"ning matniy xususiyatlari	407
Husnigul JO'RAYEVA. Husayn Boyqaro – Husayniy adabiy merosining O'zbekistonda o'rganilishi	412
Dilnoza RUSTAMOVA. Alisher Navoiy toshbosma devonlaridagi ayrim g'azallar matnining qo'lyozma nusxalar bilan qiyosi	417
Erfan ESHGHÎNOUR. Fâni Divanındaki Avnî Divanından Tercüme Olunmuş Şiirler Üzerine	423
Lochinbek AHMADALIYEV. Po'latjon Qayyumiy tazkiralarda Alisher Navoiy faoliyatining yoritilishi	433
Dilnavoz SATTOROVA. Navoiy g'azallariga Sa'diy taxmislari	438
IV SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI SECTION IV. TRANSLATION OF ALISHER NAVA'I'S WORKS INTO FOREIGN LANGUAGES AND STUDY ABROAD	
Hulkar HAMROYEVA, Shahlo NARALIYEVA, Ozodaxon MUSAYEVA. Qozog'istonda Mir Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi	444
Abdulhay SOBIROV, Zamira DJURABAYEVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" – turkiy xalqlar leksikasining so'nmas bulog'i	451
Münevver TEKCAN, Serpil Yazıcı ŞAHİN. Muhakamat al-lughatayn's literary and academic aspects.	455
Бермет ЗАКИРОВА, Дамилова НУРИЙЛА. Алишер Навоинин чыгармаларындагы тилдик каражаттар аркылуу студенттин кеп маданиятын өстүрүү	462
Nishonboy XUSANOV. "Hayrat ul-abror"dagi teonimlarning semantik va badiiy xususiyatlari	468
Mardon RAHMATOV. Qo'shma fe'l komponentlari inversiyasi	472
Rashid ZOHID. Hayot – firoq manzili	478
Shahlo HOJIYEVA. Alisher Navoiy badiiy kashfiyotlari – Cho'lpon estetik tafakkuri yangilanishi omili	482
Mo'minjon SULAYMONOV. Alisher Navoiy davrida isiriq solinganmi?	488
Abdumurod TILAVOV. Alisher Navoiy ma'naviy merosi va zamonaviy ta'lim	492
Nilufar RASULOVA. Alisher Navoiyning boqiy merosi jahon tillarida	497
Ozodaxon MUSAYEVA, Gulchehra SULTONOVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" asaridagi turkiy fe'llar va omonim so'zlar tahlili	502

Iroda ISHONXANOVA. Alisher Navoiy hayoti va ijodining “Литература” darsliklarida aks etishi	505
Shahlo NARALIYEVA, Farrux ABDALIYEV. Hazrat Navoiy ijodida nutq madaniyati	514
АШИРОВА Т.К., КАРАЕВА Н.О., ЗАКИРОВА Б.А. Алишер Навоинин чыгармаларын санарип платформалар аркылуу жайылтуу	518
Dilorom YULDASHEVA, Shahlo NARALIYEVA. Alisher Navoiyning didaktik qarashlari	523
Komiljon ABDULLAYEV. Ta’lim tizimi bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o’rgatishda fanlararo integratsiyadan foydalanish	527
Gulnoza YULDASHEVA, Sevinch UBAYDULLAYEVA. “Lison ut-tayr” dostonining ayrim morfemik xususiyatlari tahlili	531
Feruza DJUMANIYAZOVA. Alisher Navoiy ijodida milliy etnosport o’yinlari	534
Hamida JURAQOBILOVA. O’zbek she’riy matnlaridagi kognitiv metaforalarning fransuz tilida ifodalanishi	539
Abdug’ani NASRIDDINOV. Navoiyshunoslikda yangicha yondashuv	544
TEZISLAR ADABIYOTSHUNOSLIK	
AHMADOVA Shohsanam. Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy ijodida zohid obrazi tasviri	550
ABDURAIMOVA Xafiza. Alisher Navoiy g’azaliyotida Doro obrazi talqinlari	553
ALIYEVA Sevinch. Anbiyolar haqidagi manbalarda Iso payg’ambar obrazi tasviri	556
ALMARDONOVA Aziza. Alisher Navoiy tarji’bandlarida dunyo ramzi	561
DEHQONOV Akramjon. Bir g’azal sharhi	564
DOLIMOV Shokir. «Hayrat ul-abror» dostoni sharhining rus tiliga tarjimai xususida	567
GAFUROVA Shaxnoza. Navoiy me’rojnoma baytlarida qo’llangan badiiy san’atlar	569
IBOTOVA Madina. Alisher Navoiy g’azallarida jon va ishq munosabatining badiiy ifodasi	572
MEYLIYEV Xudoyberdi. Navoiy va zamondoshlari asarlarida Mirzo Mironshoh saroyi adabiy muhiti va shoir Lutfulloh Nishopuriy ijodiy faoliyatining yoritilishi	576
MUQUMOVA Surayyo. “Nasoyim ul-muhabbat”: ism, xosiyat va xususiyat	579
NASRULLAYEV Elmurod, SIROJIDDINOVA Sevinch. Xalq og’zaki ijodida Navoiy timsoli talqini	581

NURULLAYEVA Hulkaroy, MAMADALIYEVA Madina. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini o‘qitish bo‘yicha ayrim mulohazalar	584
OLIMJONOV Davronbek. “Boburnoma” asarida tarixiy shaxslar tavsifi (Alisher Navoiy shaxsi misolida)	587
PARDAYEVA Nigora, PIRNAZAROVA Barno. Navoiy lirikasida kichik lirik janrlar	589
SHOMURODOV San‘at. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari isajon sulton talqinida	593
TO‘XTAMURATOV Furqat. Alisher Navoiy g‘azaliga Muhsiniy tatabbu’si	596
TURDIYEVA Maftuna. “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasidagi ba’zi farqli jihatlar	599
UMAROVA Dildor. Alisher Navoiy asarlarida sukut go‘zalligi ifodasi	602
UMAROV Sardorbek. Ma’rifatning haqiqati – hayratdir	604
YANGIBOYEV Shavkat. Ito haqida	607
TILSHUNOSLIK	
YULDASHEVA Dilorom. Alisher Navoiy asarlarida rang-tus ifodalovchi birliklar	611
AXMADJANOVA Malika. Alisher Navoiy va o‘zbek tilining boyitilishi: ilmiy metodlar va uslublar	613
AKBAROVA Zulfizargul. Alisher Navoiy asarlarida qo‘llanilgan antonimlik hosil qiluvchi “Ahl” komponentli lug‘aviy birliklar tahlili	617
YUSUPOVA Dildora. Alisher Navoiy asarlarida qimmatbaho tosh nomlari	619
MUNDARIJA	622